

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
D.E.Normatova Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
B.E.Xusanov Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
N.M.Axmadiyev Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda kekxa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
N.N.Teshayev Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari	223
K.G’.Kamolova Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni	227
M.M.Qaxxorova, B.Farfiev Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
K.U.Sharipova Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
S.A.Xayrullayev Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
O’.X.Rajabov Maslahat – konsensusning sinergetik omili	248
Sh.T.Abbosova Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch	251

SIYOSAT

K.X.Avazov Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
A.A.Abdilxamedov Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
B.Y.Paluaniyazov Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
U.M.Kuranov Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati	270

ТАРИХ

Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
M.X.Исамиддинов Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
X.Raxmatillayev Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar	314
F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari	318
N.S.Abdullayeva Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
S.B.Xakimova “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
Ш.Т.Темиров Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие	332

**GLOBALASHUV SHAROITIDA MISSIONERLIKKA QARSHI KURASHNING
MA'NAVİY – MA'RIFIY AHAMIYATI****THE SPIRITUAL AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE FIGHT AGAINST
MISSIONARY WORK IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION****ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ БОРЬБЫ С МИССИОНЕРСТВОМ В
УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ****Kuranov Umid Muxammadovich¹**¹Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma'naviy – ma'rifiy ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada missionerlikka qarshi kurashda ma'naviyat insonni o'zligini anglatuvchi betakror mo'jizaviy kuch- qudratga ega ekanligi, ma'naviyat qudratli kuch sifatida u millatimiz, xalqimizni buyuk va ulug'vor maqsadlar sari birlashtiruvchi bayroq ekanligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Аннотация

В данной статье представлен научный анализ духовно — просветительского значения капши купаша в условиях глобализации. Также в статье научно освещено, что в борьбе с миссионерством духовность как могущественная сила обладает чудодейственной силой бетакпопа, олицетворяющей инконфликтность духовность как могущественная сила, это капу биплаштипирующий носок для великой и славной цели нашей нации, нашего народа.

Abstract

This article presents a scientific analysis of the spiritual and educational significance of kapsha kupasha in the context of globalization. The article also scientifically highlights that in the fight against missionary work, spirituality as a powerful force has the miraculous power of betakpop, personifying conflict spirituality as a powerful force, it is a mouthpiece for the great and glorious goal of our nation, our people.

Kalit so'zlar: Globallashuv, insoniyat, tahdid, missioner, prozelitizm, ma'naviyat, ma'rifat, axloqsizlik, odobsizlik, taraqqiyot, manipulyatsiya, ekspantsiya.

Ключевые слова: Глобаллашув, человечество, угроза, миссионер, прозелитизм, духовность, просвещение, нравственность, нравственность, нравственность, развитие, манипуляции, экспансия

Key words: Globalization, humanity, threat, missionary, proselytism, spirituality, enlightenment, morality, morality, morality, development, manipulation, expansion

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, ma'naviyat — bu insonning axloqiy fazilatlari, tanlov qilishda u boshqaradigan qoidalar to'plami sifatida qayd etiladi. Bu atama ko'pincha so'zlashuv tilida yoki adabiyotda «axloq» atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi. Ma'naviyatga oila, jamiyat, ta'lim, g'oyaviy-siyosiy va vatanparvarlik orqali erishiladi. Shu boisdan ham tadqiqotchi T.Mahmudov ma'naviyatga quyidagicha ta'rif beradi: «Ma'naviyat millat va shaxsning butun insoniy faoliyat va ideallarini qamrab oluvchi universal tasavvurdir...Ma'naviyat shaxs va millatning «aqli qalbi»ni ifoda etadigan, tarix taqozosiga binoan uning tomonlari namoyon bo'ladigan, tabiat, jamiyat va insonning insoniylashuvi darajasini bildiradigan ruhiy idrok olamidir»[1. 34.]. Bizning nazarimizda esa inson ma'naviyati faqat atrof-muhit ta'sirida shakllanmaydi.

O'tmishdan ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichida ma'naviyat sohasi hamisha dolzarb masala sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Aslini olganda, ma'naviyat insonni o'zligini anglatuvchi betakror mo'jizaviy kuch- qudratga egadir. Ma'naviyat shunday qudratli kuchdirki, u millatimiz, xalqimizni buyuk va ulug'vor maqsadlar sari birlashtiruvchi bayroqdir.

Bugun dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Mana shunday murakkab bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda aniq maqsadga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratilgan edi.

Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: qayd etganidek: "Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot, Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"[2],-deya ta'kidlagani bejiz emas. Zero, diyorimiz milliy qadriyatlari, madaniyati rivojlangan yuksak ma'naviyatga ega tamaddun o'chog'idir.

Globalashuvning tobora avj olishi va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jahonda keskin burilish yasamoqda. Bugungi kunda O'zbekiston o'zini milliy taraqqiyotning yangi davriga qadam qo'ydi. Buni barcha sohalardagi tub o'zgarishlar qatori ma'naviyat, ma'rifatga bo'lgan munosabatlarda ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, yurtimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda jaholatga qarshi kurashda ma'naviyat va ma'rifat bilan kurashish borasida ulkan ishlar qilinilayotganligi ayniqsa diqqatga sazovordir. Bu borada, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatlarining yo'lga qo'yilishi mamlakatimizda muqaddas Islom dini qadriyatlari va an'alarini yanada rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy sohada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar zamirida yurtimizda ta'lim, ilm-fan, madaniyat ma'rifat, ajdodlar merosini o'rganish, qadrlashga bo'layotgan yuksak e'tibor nafaqat mamlakatimiz va mintaqa aholisi, balki jahon hamjamiyati tomonidan ham yuksak e'tirofga sazovor bo'lmoqda.

Bugungi zamon shiddati inson hayotida ma'naviyatni naqadar muhim ekanligini taqozo etmoqda. Zero, «axloqsizlik, odobsizlik, ma'naviy qashshoqlik insonni tubanlik girdobiga giriftor etib, keng miqosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltiradi. Ma'naviyat yo'qolgan joyda insonda hayvoniy xislatlar ildiz otib, yovvoyilik, vahshiylik, jaholat va xurofot kuchayadi»[3.]. Natijada, inson o'z aslini yo'qotish orqali qadriyat sifatidagi maqomidan judo bo'ladi.

O'tmishdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar avvalo uni o'zligi, tarixi, ma'naviyati va madaniyatidan judo qilishga alohida e'tibor qaratishgan. Zero, ma'naviy jihatdan zabt etilgan har qanday xalqni madaniy-ma'naviy taraqqiyotini bo'g'ib qo'yish istilochi, bosqinchi mamlakatlarning mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o'tgan an'anaviy usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni bora-bora o'ziga singdirib yuborishni, buning uchun o'z mafkurasi va g'oyalarini ularga majburan joriy etish, madaniyatiga raxna solish orqali ma'naviy jihatdan taraqqiy etishiga yo'l qo'ymaslikni o'z siyosatining «asosiy maqsadi» sifatida e'tibor qaratgan. Mazkur fikrlarni bundan 2700 yil oldin yashagan qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy o'z imperatoriga shunday «maslahat» bergan ekan: «Hoqonim, agar biror mamlakatni zabt etib, u erda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo'lsangiz, dastavval o'sha erda yashayotgan xalqni o'z tarixi madaniyatidan mahrum eting, ma'naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o'raladi, sizga qarshilik ko'rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish oson kechadi»[4.15.], — deya ta'kidlab o'tgani e'tiborga molikdir. Binobarin, madaniyat va ma'naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlarini taraqqiy etishiga izn bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo'llaridan biri ekanligini istilochi ya'ni bosqinchilar doimo juda yaxshi anglagan. Aynan, mazkur omillarni doimo e'tiborda tutgan mustamlakachi va bosqinchilar Xitoy donishmandi aytgan «maslahat»ni oldindan rejalashtirib qo'yishadi. Zero, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatga tahdid solish orqali xalqning, mamlakatning ma'naviyati va ma'rifatini barbod etishi oqibatida har qanday xalq, millat e'tiqodsizlik girdobiga mahkum bo'ladi. Shu tariqa, ma'naviyati izdan chiqqan bunday o'lkada, mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik avj olishi oqibatida xalqning mentaliteti milliy g'urur, iftixor, milliy qadriyatlar asta-sekin zaiflasha boshlaydi. Vaholanki, ana shunday o'lkani, mamlakatni, uning xalqini

mustamlakachilik kishanlarda ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish ancha oson va «silliq» kechadi.

Bugun dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, mafkura poligonlarida g'oyaviy – mafkuraviy kurashning tobora avj olishi yoshlar ongi va qalbini ekspansiya (zabt etish) etishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, ma'naviy tubanlik ta'siri oqibatida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi bir qator «ta'limotlari» oshkora ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada, milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va uning asriy qadriyatlariga raxna solish orqali zimdan yemirishga zamin yaratilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

«Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shu kabi harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar kuzatilmoqda. Millatlarning azaliy qadriyatlari milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqmoqda, odob-axloq, oila va jamiyat hayoti xavf ostida qolmoqda. Eng yomoni, bunday ma'naviy tahdidlarga tajovuzning bosh maqsadi insonni o'zi tug'ilib o'sgan yurtidan, xalqidan voz kechishga, vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuyg'ularidan mahrum etishga va barcha narsaga loqayd bo'lgan, axloqan tuban xudbin va beparvo shaxsga aylantirishga qaratilgan»[5.156.]. Zero, mazkur illatning ijtimoiy namoyon bo'lishi muayyan mintaqa va mamlakat aholisi ongi, qalbini zabt etmoqda. Natijada, mazkur illat asl ma'naviy qadriyatlarni tanazzul sari etaklab, har bir xalq va millatning o'z madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlarini inkor etishi orqali yoshlar ongida bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan dunyoqarashni shakllantirmoqda.

Shuni alohida qayd etish joizki, ma'naviyat — xalqimiz or-nomusini uyg'otuvchi beqiyos kuch, ozodlik, vatanni sevishga undovchi da'vatkor tug'yondir. Bugungi zamon shiddati har qaysi millat, xalqni kelajakda o'zligini saqlab qolish uchun eng avvalo, ma'naviyat masalasiga bo'ladigan tahdidlardan muntazam ogoh, sezgir va hushyor bo'lish borasida kechiktirib bo'lmas asosiy masala sifatida dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

So'nggi vaqtlarda missionerlik faolligi tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligini kuzatish mumkin. Ana shu sa'y-harakatlar samarasi bo'lgan dinlararo muloqot hamisha kun tartibida turgani ham bu o'zgarishlarning bir qismidir. «Missionerlar faqat bir-birini tanish va tushunishga asoslangan sodda muloqotni qabul qilishmaydi. Bir-birlarining madaniyatlarini va e'tiqodlarini boyitish maqsadini ko'zlagan suhbatni ham ular oqlashmaydi. Ularning asl maqsadi — qarshisidagi kishini nasroniylashtirishdir.

Ularning fikricha, muloqot bahslashishni emas, «qutqarish»ni ko'zlashi kerak. «Najot-qutulish»ga erishish esa o'z-o'zidan bo'la qolmaydi. Buning uchun qarshisidagi insonlar bilan jozibali muhitni yuzaga keltiradigan suhbat qurish lozim bo'ladi»[6]. Ilgari faqat diniy tahdid bo'lgan bunday harakatlar mamlakat xavfsizligiga katta tahdidga aylandi. Buni payqagan ayrim davlat idoralarimiz, ommaviy axborot vositalari vaqti-vaqti bilan maqolalar chop etmoqda. Afrikadagi tarixdagi birinchi missionerlik faoliyati diniy emas, balki siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarda e'tiqod va madaniyat muhitini yaratishga urinish bo'lganligi aniq.

Shu o'rinda, Kenyaning sobiq birinchi prezidenti Jomo Kenyatta (1889-1978) missionerlarning maqsadlarini quyidagicha tasvirlaydi: «Xristianlik Afrikaga kelganida, afrikaliklar yer va resurslarga, nasroniylarda esa faqat Injil bor edi. Xristianlar bizni ibodat va topinish uchun ko'zimizni yumishni o'rgatgan. Ko'zimizni ochganimizda, ular yerlarimizni, konlarimizni, biz esa ularning Xushxabarlarini oldik. Ularda bizning yerlarimiz bor edi, bizda Injil bor edi. «Bu so'zlar siyosiy murojaatlar emas, balki tarixiy faktlar. Avvalo, nasroniyning musulmon bo'lishi oson, lekin musulmonning nasroniy bo'lishidan qiyinroq narsa yo'q. Shuning uchun ham hech bir missioner musulmonga to'g'ridan-to'g'ri: «Men sizni nasroniylikni qabul qilgani keldim», demaydi. U o'z e'tiqodi va madaniyatidan nimanidir ag'darib tashlamoqchi. Ularning eng keng tarqalgan dalillari shundaki, nasroniylik o'z vakillarini targ'ib qiladi, islom esa orqada qoladi. Albatta, tarixni o'qigan kishi bu noto'g'ri ekanligini biladi. Uyg'onish, reformatsiya va ma'rifat nasroniylikka qarshi reaksiya sifatida kelganini hamma biladi.

Bugun mamlakatda diniy guruhlar ko'payib bormoqda. Mamlakatimizda dinimizga yot bo'lgan boshqa missionerlik oqimlari, islomning boshqa ko'rinishlari qonun bilan taqiqlanganiga qaramay, ular yashirin faoliyat yurita boshlagan. Mamlakatimizda bunday noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish, yoshlarni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida bir qator fundamental chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri diniy kitoblardir.

Xalqimizning ma'naviy immuniteti to'liq shakllanmaguncha, mantiqiy kitoblarni nazorat qilish zarur. Jamiyatning istalgan sohasiga «xavfli virus» yuqmasligi uchun mudofaa tizimini qurish

SIYOSAT

zamonaviy talabdir. Shariatga qarshi adabiyotlar diniy savodsizlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Inson aqli musaffo tuproq kabidir. Unga nima ekilgan bo'lsa, o'sadi. Xuddi shunday, agar inson ongi zararli kitoblar bilan zaharlansa, bu butun xalq uchun xavf tug'diradi. Ayni paytda diniy adabiyot katta e'tibor talab qiladi.

Bugungi kunda globallashuvning tobora avj olishi aksariyat missionerlik tashkilotlarini dunyo miqyosida o'zining yangi loyihalarini amalga oshirish imkon bermoqda. Ayniqsa, missionerlikni dunyoning miqyosida yoyish uchun texnik imkoniyatlar vujudga keltirmoqda G'arbning evangelistik sektalarining faoliyati ba'zi tadqiqotchilarga «parallel globallashuv» — sektaviy qadriyatlar majmuasi bo'lgan yangi globallashuv loyihasi haqida gapirishga imkon beradi. Natijada, protestantizmning eshiluvchanligi protestantlik qarashlari, bozor iqtisodiyoti doirasiga ta'sir etish imkoniyatini beradi. Aynan, protestant missionerlari tomonidan muayyan mintaq va hududda «iqtisodiy» yordam ko'rsatish orqali protestantlikni qabul qilish aksariyat holatlarda iqtisodiy jihatdan yuqori natijaga erishuvini ilgari surishmoqda. Shu tariqa aksariyat missionerlik tashkilotlari strategiyasida go'yoki, aynan protestantlikni qabul qilinishi iqtisodiy tiklanishga zamin yaratadi degan g'oyani singdirishga intilish namoyon bo'lmoqda.

Dunyodagi barcha xalqlar go'yoki, G'arbning dini, madaniyati, ma'rifati, urf-odatlarini va turmush tarzidan o'rnak olishi lozim, degan aqida missionerlik tarafdorlarining asosiy g'oyasiga aylandi. Natijada, ayrim davlatlar iqtisodiy yordam tufayli protestantlikni qabul qilishi gegemon davlatlarning ta'siriga tushishga zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda missionerlik puxta o'ylangan rejalar asosida, go'yoki o'z faoliyatini amalga oshirishda Olloh va dindan niqob sifatida foydalanayotganligi tobora oydinlashmoqda. Xususan, tajribali missionerlar turli toifadagi insonlar orasida o'zlarini o'ta hushyor tutishga alohida e'tibor qaratishadi. Ayniqsa, muayyan mintaq va hududda vujudga kelgan iqtisodiy nochorlikdan «unumli» foydalanish orqali o'zlariga ishonuvchilarni totalitar sektalar o'zining soxta dinlariga o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Missionerlik tashkilotlari iqtisodiy nochor vaziyatlar vaqtida «beg'araz» yordam berish niqobi ostida o'zga mamlakatlarga suqilib kirishga intilishadi. Ayniqsa, Vashington axborot agentligi tomonidan tarqatilgan xabarga ko'ra, MPB nojo'ya harakatlarga yo'l ochib beruvchi missionerlik tashkilotlariga dengiz orti mamlakatlari bo'ylab maxfiy ishlarni olib borishga ruxsat berganligi haqida ma'lumot bergan edi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mutaxassislar bugungi kunda dunyoning turli burchaklaridan turib zo'r berib ilgari surishga harakat qilayotgan «tizimiy qayta qurish» g'oyasini ustalik bilan niqoblangan mafkuraviy strategiya sifatida baholamoqda [7. 39]. O'z navbatida, mazkur holat, bunday davlatlarda hokimiyat boshqaruvi noaniq kuchlar qo'lga o'tib ketish xavfi namoyon bo'lmoqda. Zero, global tarzda tobora kuchayotgan missionerlik harakatlari oqibatida millatchilik, ayirmachilik, antisemitizm, imperiyaparastlik, evrotsentrizm g'oyalarining ijtimoiy namoyon bo'layotganligi siyosiy hayotini izdan chiqarayotganligi tashvishlidir.

Bu haqda Rus tadqiqotchisi faylasuf I. Belyayev: «globallashuvning shiddatli tus olishi o'z navbatida keyingi mamlakatlarga nisbatan genotsid quroli bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatadi» [8.19].- deya alohida ta'kidlab o'tadi. Zero, dunyo miqyosida dinning globallashuvi an'anaviy konfessiyalar bilan birga noan'anaviy konfessiyalar o'rtasidagi raqobatni tobora kuchayotganligini ko'rsatmoqda. Masalan, «missionerlik tashkilotidan ketishga intilayotgan a'zolariga doimiy ravishda tahdid qilish orqali «agar sen ketsang, hayoting chilparchin bo'ladi» yoki «qalbing qiyma-qiyma bo'ladi», «sen do'zaxga tushasan», yoki «qarindoshlaring tashvish chekadi» yoki «hayoting xavf ostida qoladi», deya ta'kidlashadi. Natijada, tarafdorlar missionerlik tashkilotini tashlab ketishga qo'rqishadi. Mazkur holatni Uitness Lining mahalliy cherkovi tomonidan tashkilotni tashlab ketishga harakat qilayotgan a'zolariga nisbatan qo'llanilgan uslublarda ko'rish mumkin. Ayniqsa, tashkilot a'zolarini cherkovni tark etishi go'yoki, ularning hayotida dahshatli voqealar ro'y berishiga sabab bo'lishini aytib tahdid solishadi» [9.77].

O'z navbatida, «sekta ta'limotiga e'tibor qaratisa, u insonni ilohiylashtirish natijasida xristianlikdan ancha yiroqda ekanligini anglashiladi. Missionerlar moddiy va moliyaviy yordam ko'rsatishning turli usullaridan ustalik bilan foydalanadilar» [10.98.]. Shu o'rinda, missionerlik tashkilotlari o'z a'zolariga ushbu tahdidlardan xalos bo'lish va uni bartaraf etish maqsadida tashkilot uchun ko'proq moddiy mablag'lar berish zarurligini ta'kidlashadi. Natijada, missionerlik tashkilotlari to'g'risida qilayotgan shubhalar tashkilotni emas, balki, shubhalanuvchi a'zolarining kamchiliklarini

aks ettiradi, degan tasavvurni mustahkamlashga e'tibor qaratishadi.

Shu orqali missionerlik tashkilotlari o'z a'zolarini doimo bo'ysundirish va nazoratda ushlab turish maqsadida turli xil uslublarni qo'llab ta'hdid qilishadi. Natijada, missionerlik tuzog'iga tushgan insonlar qalbi va ongi hamda dunyoqarashida salbiy o'zgarishlar vujudga kela boshlaydi. Mazkur holat, muayyan mintaq va mamlakat fuqarolari orasida o'zining azaldan shakllangan qadriyatlarini, madaniyatini, ma'naviyatiga nisbatan raxna solishga zamin yaratmoqda.

Shu tariqa, missionerlik targ'iboti oqibatida dunyoda milliy, irqiy, diniy adovatlar tobora kuchaymoqda. O'z navbatida, missionerlar o'z dinini boshqa din vakillari orasida keng miqyosida targ'ib etishga bo'lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. Aynan, missionerlik zamirida ayrim mamlakatlarni diniy ixtiloflar asosida parokandalik girdobi sari yetaklash orqali faqat siyosiy maqsadlar ko'zlangan bo'lib, g'arazli niyatlar borligini anglash lozim. Ayniqsa, madaniy ma'naviy qadriyatlariga nisbatan mafkuraviy bosim o'tkazish orqali xalq va millatni o'zligini anglashga to'sqinlik qilishni namoyon etmoqda. Missionerlik harakatlari oqibatida xalqning ma'naviyati va madaniyatiga ta'sir o'tkazish orqali milliy o'zlikni anglashda salbiy omil vazifasini o'tamoqda.

Xulosa qilib aytganda, missionerlik globallashuv sharoitida ushbu harakatlari oqibatida dunyo miqyosida milliy, diniy adovatlarni qo'zg'atuvchi harakat sifatida dinlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish, tinch va osuda hayotga ta'hdid solish orqali nafaqat jamiyatda balki mamlakat miqyosida separatizmni keltirib chiqarishga intilayotganligini bugungi kun bugungi davr bizdan jiddiy fikrlashni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxmudov T. Inson va ma'naviyat// Tafakkur va taqdir.-T.: Ma'naviyat, 1998.
2. Shavkat Mirziyoyev: Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. <https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoyev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-zhoni-va->
3. Komilov M. Ma'naviyat qalb najotkori. Qoraqalpog'iston tongi. 2022 yil 19 fevral. №7 (1484).
4. Mamatqobilov T., Musayev M., Jurayev H. Xalqimizni harakatlar strategiyasini amalga oshirishga safarbar qilishda ma'naviy – ma'rifiy ishlarning roli. – Toshkent: Sano-standart. 2017. – B. 15.
5. Sodiqov S. Globallashuv sharoitida uzluksiz ma'naviy tarbiya kontsepsiyasining yangi ma'naviy makon muhitini shakllantirishdagi ahamiyati. Manipulyatsiya jarayonlari va ularga qarshi chora-tadbirlarning zarurati. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va targ'ibotning zamonaviy texnologiyalari respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.– Toshkent: MAX PRISTIL, 2022.
6. www.qadriyat.uz/dolzarb/229-musulmonlarga-j-naltirilgan-missionerlik-arakatlari.
7. Nazarov A. Globallashuv sharoitida barqaror siyosiy taraqqiyot xavfsizligini ta'minlash muammolari. O'zMU xabarlari. №1/1 2016.
8. Belyaev M. Kontsepsiya russkogo natsional'nogo gosudarstva. – M., 2006.
9. Butenko O. Ekkleziologiya sektori «Mestnaya serkov»: Dirlomnaya rabota. Rukoris. – M., 2001.
10. Tanimov Sh. Missionerstvo i prozelitizm kak novaya forma ideologicheskoy interventsii. Demokratizatsiya i prava cheloveka. 1/2022.